



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## XORAZM VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



**Dastlabki ma'lumot**  
2024- yil yanvar-noyabr

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
Тел. 62-224-65-09

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

### Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **6 078** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **81** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 997** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **13 261,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **108,7 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **469,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **65,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 792,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **111,4 %**), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 558,1** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **114,6 %**) tashkil etdi.

|                        | Jami,<br>mlrd so'm | 2023- yil yanvar-noyabr<br>oyiga nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|--------------------|--|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>13 261,6</b>    | <b>108,7</b>   |
| Urganch sh.            | 3 392,4            | 111,4  |
| Xiva sh.               | 598,9              | 106,5  |
| Bog'ot                 | 756,7              | 108,3  |
| Gurlan                 | 1 025,1            | 108,6  |
| Qo'shko'pir            | 686,2              | 112,3  |
| Urganch                | 1 615,0            | 105,6  |
| Hazorasp               | 1 329,4            | 106,3  |
| Tuproqqa'l'a           | 299,1              | 109,2  |
| Xonqa                  | 822,8              | 105,6  |
| Xiva                   | 456,7              | 106,4  |
| Shovot                 | 905,9              | 112,1  |
| Yangiariq              | 574,9              | 106,5  |
| Yangibozor             | 361,7              | 109,2  |

2024- yilning yanvar-noyabr oyida 2023- yilning yanvar–noyabr oyiga nisbatan viloyatning Qo'shko'pir tumanida (**112,3%**), Shovot tumanida (**112,1 %**) hamda Urganch shahrida (**111,4 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-noyabr)**

101,0%      110,2%      111,7%      106,0%      108,7%



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **111,7 %** ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,  
oylar kesimida (foizda)**



2024- yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **108,7 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **26,5 %** bilan **3 392,4 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqa'l'a tumanida **2,3 %** bilan **299,1 mlrd so'mni** tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-noyabr oyida, statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 792,3** mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **11,4 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,5 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **34,1 %** ga kamaydi va **469,3** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.




## **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)**

|              |             |
|--------------|-------------|
| <b>108,6</b> | Gurlan      |
| <b>109,2</b> | Tuproqqal'a |
| <b>112,5</b> | Qo'shko'pir |
| <b>113,0</b> | Shovot      |
| <b>120,3</b> | Urganch sh. |

## **Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)**

|              |             |
|--------------|-------------|
| <b>112,5</b> | Bog'ot      |
| <b>147,9</b> | Tuproqqal'a |
| <b>168,2</b> | Yangibozor  |

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (99,9 %), Yangiariq (99,6 %), Gurlan va Qo'shko'pir (99,5 %) tumani mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (7,6 %), Xiva tumani (5,7 %), Yangibozor tumani (5,4 %), Xiva shahri (3,4 %) va Hazorasp tumani (3,0 %) kuzatildi.

3,5 %



96,5 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Xorazm viloyati

**6 603,4**

Shovot

**4 991,0**

Urganch sh.

**21 999,8**

Yangiariq

**4 643,9**

Xiva sh

**6 037,3**

Yangibozor

**3 889,1**

Bog'ot

**4 267,7**

Gurlan

**6 484,0**

Qo'shko'pir

**3 745,8**

Urganch

**7 504,5**

Hazorasp

**6 410,1**

Tuproqqa'l'a

**5 002,0**

Xonqa


**4 122,3**

Xiva

**2 927,6**

2024- yilning yanvar-noyabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 603,4** ming so'mni (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **106,7** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**21 999,8** ming so'm), Urganch (**7 504,5** ming so'm) va Gurlan (**6 484,0** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-noyabr), foizda**



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA  
DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA)  
BOZORLARINING ASOSIY  
KO'RSATKICHLARI**

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

|                        | Jami,<br>mlrd<br>so'm | 2023- yil yanvar-<br>noyabr oyiga<br>nisbatan, foizda |
|------------------------|-----------------------|---|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>2 558,1</b>        | <b>114,6</b>  |
| Urganch sh.            | 422,1                 | 108,3   |
| Xiva sh.               | 112,3                 | 96,8  |
| Bog'ot                 | 308,2                 | 109,5   |
| Gurlan                 | 368,0                 | 112,5   |
| Qo'shko'pir            | 258,1                 | 117,5   |
| Urganch                | -                     | -   |
| Hazorasp               | 283,5                 | 132,3   |
| Tuproqqal'a            | 40,2                  | 142,5   |
| Xonqa                  | 157,0                 | 103,4   |
| Xiva                   | -                     | -   |
| Shovot                 | 440,8                 | 124,3   |
| Yangiariq              | 104,9                 | 117,4   |
| Yangibozor             | 63,1                  | 106,4   |


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-noyabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo aylanmasi **2 558,1 mlrd so'mni** tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **114,6 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 263,8 mlrd so'mni (118,8 %)**, chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 294,3 mlrd so'mni** tashkil etdi (**110,8 %**).

2024- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 263,8 mlrd so‘mni** tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**573,9 mlrd so‘m**) to‘g‘ri keldi.

### **Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi**

|  |   |   |
|--|---|---|
| <b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b><br><b>573,9 mlrd so‘m</b><br> 45,5 % | <b>Non va non mahsulotlari</b><br><b>106,3 mlrd so‘m</b><br> 8,4 %   | <b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b><br><b>129,1 mlrd so‘m</b><br> 10,2 %      |
| <b>Tovuq go‘shti</b><br><b>67,3 mlrd so‘m</b><br> 5,3 %                                | <b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b><br><b>45,3 mlrd so‘m</b><br> 3,6 % | <b>Tuxum</b><br><b>38,9 mlrd so‘m</b><br> 3,1 %   |
| <b>Ziravorlar</b><br><b>24,4 mlrd so‘m</b><br> 1,9 %                                   | <b>Sut va sut mahsulotlari</b><br><b>43,8 mlrd so‘m</b><br> 3,5 %  | <b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b><br><b>56,4 mlrd so‘m</b><br> 4,6 % |
| <b>Tuzlamalar</b><br><b>17,9 mlrd so‘m</b><br> 1,4 %                                   | <b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b><br><b>19,8 mlrd so‘m</b><br> 1,6 %  | <b>Nooziq-ovqat tovarlar</b><br><b>140,8 mlrd so‘m</b>  |

2024- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 294,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosи **1 191,9** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **95,9** mlrd so'mni, parrandalar – **6,3** mlrd so'mni tashkil qildi.

### **Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi**

|  |  |   |
|--|--|---|
| <b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b><br><b>685,7</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 53,0 % | <b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b><br><b>341,7</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 26,4 % | <b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b><br><b>164,5</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 12,7 % |
| <b>Qo'yilar</b><br><b>82,4</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 6,4 %                           | <b>Echkilar</b><br><b>13,5</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 1,0 %                                  | <b>Kurka, o'rdak, g'oz</b><br><b>3,4</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 0,3 %              |
| <b>Tovuqlar</b><br><b>2,9</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 0,2 %                            | <b>Quyonlar</b><br><b>0,1</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 0,01 %                                  | <b>Qushlar</b><br><b>0,01</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 0,001 %                       |
| <b>Otlar</b><br><b>0,1</b><br><b>mlrd so'm</b><br> 0,01%                               |   |    |

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 459** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 457** tani tashkil qildi.

|                        | Jami<br>mlrd so'm | 2023- yil yanvar-<br>noyabr oyiga<br>nisbatan, foizda |
|------------------------|-------------------|---|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>9 052,5</b>    | <b>113,8</b>  |
| Urganch sh.            | 171,0             | 112,0   |
| Xiva sh.               | 23,5              | 112,6   |
| Bog'ot                 | 27,9              | 109,7   |
| Gurlan                 | 6,9               | 121,0   |
| Qo'shko'pir            | 5,9               | 111,7   |
| Urganch                | 61,4              | 122,1   |
| Hazorasp               | 14,3              | 111,9   |
| Tuproqqa'l'a           | 5,3               | 105,8   |
| Xonqa                  | 28,7              | 111,6   |
| Xiva                   | 7,6               | 109,1   |
| Shovot                 | 28,2              | 110,0   |
| Yangiariq              | 15,1              | 111,2   |
| Yangibozor             | 13,0              | 110,2   |

2024- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **9 052,5** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **13,8 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

|                 | Hajmi,<br>mlrd so'm | Ulushi,<br>foizda |
|-----------------|---------------------|-------------------|
| Xorazm viloyati | <b>5 433,2</b>      | <b>100,0</b>      |
| Urganch sh.     | 4 774,3             | 87,9              |
| Xiva sh.        | 54,2                | 1,0               |
| Bog'ot          | 93,4                | 1,7               |
| Gurlan          | 28,0                | 0,5               |
| Qo'shko'pir     | 15,9                | 0,3               |
| Urganch         | 60,1                | 1,1               |
| Hazorasp        | 181,9               | 3,3               |
| Tuproqqa'l'a    | 17,2                | 0,3               |
| Xonqa           | 97,2                | 1,8               |
| Xiva            | 7,6                 | 0,1               |
| Shovot          | 37,1                | 0,7               |
| Yangiariq       | 47,0                | 0,9               |
| Yangibozor      | 19,2                | 0,4               |


Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**4 774,3** mlrd so'm), Hazorasp (**181,9** mlrd so'm) va Xonqa (**97,2** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **5 433,2** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **87,7** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **4 699,2** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **154,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **734,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **23,3 %**) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7 249,4** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **10,0 %** ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi

5,0 %

**361,1** mlrd so‘m

**Yirik korxonalar**

95,0 %

**6 888,3** mlrd so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **6 888,3** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **120,1 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **95,0 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 339** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 302** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qo'shko'pir tumani (**5,8** martaga) va Xiva tumanida (**3,9** martaga) kuzatildi.

|                        | <b>Jami<br/>mlrd so'm</b> | <b>2023- yil yanvar-<br/>noyabr oyiga<br/>nisbatan, foizda</b> |
|------------------------|---------------------------|--|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>7 249,4</b>            | <b>110,0</b>   |
| Urganch sh.            | 3 756,1                   | 120,2  |
| Xiva sh.               | 172,7                     | 113,3  |
| Bog'ot                 | 81,1                      | 70,6   |
| Gurlan                 | 124,6                     | 66,1   |
| Qo'shko'pir            | 67,1                      | 107,9  |
| Urganch                | 1 195,3                   | 96,2   |
| Hazorasp               | 75,1                      | 84,3   |
| Tuproqqa'l'a           | 72,9                      | 105,5  |
| Xonqa                  | 277,6                     | 94,7   |
| Xiva                   | 409,3                     | 139,3  |
| Shovot                 | 107,5                     | 110,0  |
| Yangiariq              | 233,1                     | 93,6   |
| Yangibozor             | 119,4                     | 109,0  |